

ADABIY QAHRAMON SIFATIDA BILGA XOQONNING MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARI

Mahkamova Dilafruz Shavkat qizi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs tayanch doktoranti

dilafruzmahkamova@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Isajon Sultonning "Bilga Xoqon" romanida Bilga Xoqon obrazining badiiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qahramonning ma'naviy-axloqiy fazilatlari, xalq va davlat oldidagi mas'uliyati, strategik tafakkuri, insonparvarligi hamda milliy birlik g'oyasining badiiy ifodasi yoritiladi. Asardagi jang sahnalari, siyosiy muloqotlar va xalq hayoti tasvirlari orqali Bilga Xoqon obrazi nafaqat tarixiy hukmdor, balki milliy tafakkur va ma'naviy ideal timsoli sifatida gavdalanirilgani asoslab beriladi. Shuningdek, romanda tarixiy voqelik va badiiy talqinning uyg'unligi, qadimgi turkiy dunyoqarash, alp tarbiyasi va xalq ruhiyatining aks etishi ilmiy-adabiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Bilga Xoqon, Isajon Sulton, tarixiy roman, badiiy talqin, milliy ruhiyat, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, turkiy xalqlar, tarixiy xotira, alp tarbiyasi, xalqparvarlik, strategik tafakkur, adabiy qahramon.

Annotation. This article analyzes the artistic interpretation of the image of Bilga Khagan in Isajon Sulton's novel "Bilga Xoqon". The study examines the hero's moral and ethical qualities, responsibility toward the people and the state, strategic thinking, humanism, and the artistic expression of the idea of national unity. Through battle scenes, political dialogues, and depictions of people's daily life, Bilga Khagan is portrayed not only as a historical ruler but also as a symbol of national consciousness and spiritual ideal. The article also explores the harmony of historical reality and artistic interpretation, the ancient Turkic worldview, heroic upbringing traditions, and the representation of national spirit from a scholarly and aesthetic perspective.

Keywords: Bilga Khagan, Isajon Sulton, historical novel, artistic interpretation, national spirit, moral values, Turkic peoples, historical memory, heroic upbringing, humanism, strategic thinking, literary hero.

Аннотация. В данной статье анализируется художественная интерпретация образа Бильге-кагана в романе Исажона Султана «Бильге хоқон». В исследовании рассматриваются нравственно-этические качества героя, его ответственность перед народом и государством, стратегическое мышление, гуманизм, а также художественное воплощение идеи национального единства. Через батальные сцены, политические диалоги и картины народного быта Бильге-каган представлен не только как исторический правитель, но и как символ национального самосознания и духовного идеала. В статье также исследуются соотношение исторической достоверности и художественного вымысла, древнетюркское мировоззрение, традиции воспитания героической личности и отражение национального духа в их научно-эстетическом осмыслении.

Ключевые слова: Бильге-каган, Исажон Султон, исторический роман, художественная интерпретация, национальный дух, нравственные ценности, тюркские народы, историческая память, героическое воспитание, гуманизм, стратегическое мышление, литературный герой.

Kirish. Tarixiy shaxslarning badiiy adabiyotdagi talqini milliy tafakkur, davlatchilik g'oyasi va xalqning ma'naviy qadriyatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, turkiy xalqlar tarixida o'zining siyosiy donoligi, xalqparvarligi, jasorati va ma'naviy yetukligi bilan alohida o'rin tutgan Bilga Xoqon obrazi nafaqat tarixiy

manbalarda, balki zamonaviy badiiy asarlarda ham yuksak badiiy-estetik talqin etilgan siymolardan biridir.

Adabiyotlar sharhi. Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romanida ushbu tarixiy shaxs adabiy qahramon sifatida murakkab ruhiy dunyo, yuksak axloqiy fazilatlar va milliy o‘zlik timsoli sifatida gavdalantiriladi. Romanda Bilga Xoqon obrazi orqali adolatli boshqaruv, el birligi, ajdodlar merosiga sadoqat, xalq taqdiri uchun mas’uliyat, donishmandlik va insonparvarlik kabi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar badiiy ifoda topgan. Muallif qahramonning nafaqat siyosiy faoliyatini, balki uning ichki kechinmalari, ruhiy izlanishlari va insoniy fazilatlarini ham chuqur yoritadi. Shu jihatdan Bilga Xoqon obrazi tarixiy hukmdor timsolidan chiqib, milliy tafakkur va ma’naviy ideal darajasiga ko‘tariladi.

Dialogdan boshlanuvchi parchada muallif avvalo ruhiy-psixologik qarama-qarshilikni ochadi. To‘qqiz o‘g‘uzlarning “o‘layotgan arslon sichqon inini ko‘zlar” degan kinoyali so‘zlari turkiy xoqonlikning zaiflashganini ta’kidlashga qaratilgan bo‘lsa-da, Bilga Xoqon bu haqoratni hissiyot bilan emas, tafakkur bilan qabul qiladi. Uning “Arslon o‘kirsal ot tuyog‘i mayishadi” degan javobi ramziy xarakterga ega bo‘lib, hukmdorning ichki qudrati hali so‘nmaganini bildiradi. Tadqiqot nuqtayi nazaridan qaralganda, bu dialog romandagi milliy ruhiyatning muhim belgisi — mag‘lubiyat oldida ham ruhiy sinmaslik g‘oyasini ifodalaydi. Epizodning keyingi qismida Bilga Xoqonning harbiy-strategik tafakkuri ochiladi. U tabiiy makondan — qor bosgan tog‘ va muzlagan suv yo‘lidan harbiy vosita sifatida foydalanadi. “Ko‘lga quyiladigan suv o‘z yo‘lini o‘zgartiribdi” degan kuzatuv oddiy tabiat tasviri emas, balki sarkardaning makonni harbiy ong bilan idrok etayotganini ko‘rsatadi. Bilga Xoqon dushmani to‘g‘ridan-to‘g‘ri jangda emas, balki geografik sharoit yordamida tor-mor etishni rejalashtiradi. Bu holat romanda turkiy harbiy tafakkurning kuch va shiddat bilan emas, aql va kuzatuvchanlik bilan bog‘langanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Muallif jang oldi tayyorgarligini tasvirlar ekan, Bilga Xoqonning buyruqlari orqali qadimgi turkiy qo‘shin tizimining tartib-intizomini ham ochadi. Kul Tigin, Ishbara va boshqa bahodirlarga berilgan topshiriqlar aniq, vazifalar esa qat’iy taqsimlangan. Qirmizi va ko‘k yalovlarning signal vositasi sifatida qo‘llanishi turkiy qo‘shin ichidagi harbiy aloqa tizimining mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, “bitta o‘q chiqarmay tek turabergaysan” degan buyruq Bilga Xoqonning hissiyotga emas, vaqt va vaziyatni to‘g‘ri tanlashga asoslangan strategiyasini namoyon qiladi. Bu epizodda sarkarda obrazi harbiy intizom va sabr timsoli sifatida gavdalanadi. Asarda To‘nyuquqning Bulutga bergan izohi ham muhim badiiy vazifani bajaradi. To‘qqiz o‘g‘uzlarning shoxli qoramollarga minib urushga kirishi oddiy detal emas. To‘nyuquqning “muguzli qoramol otning ko‘ksini yorgay” degan izohi orqali muallif qadimgi turkiy harbiy tajriba va urush madaniyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Bulutning hayratlanishi yosh avlodning tajribasizligi va ulug‘lar donishmandligi o‘rtasidagi tafovutni ochadi. Demak, epizodda

faqat jang emas, avlodlar o'rtasidagi ustoz-shogirdlik, tajriba bo'lishish jarayoni ham mavjud.

Inigach ko'l yoqasida savash bobining kulminatsion nuqtasi — toshlarning yumalatilishi bilan bog'liq tasvirdir. Bilga Xoqon dushman qo'shini tor o'ngirga kirib kelguncha sabr bilan kutadi va ayni qulay pallada hujum buyuradi. Tabiatning o'zi jang quroliga aylanadi: toshlar qor uyumlarini qo'zg'atadi, shovqin va guldurak esa dushmanni sarosimaga soladi. Bu yerda muallif urushni faqat odamlar to'qnashuvi sifatida emas, inson va tabiat uyg'unligidagi strategik harakat sifatida talqin qiladi. Bobning yana bir muhim jihati Bilga Xoqonning insonparvarlik ruhida ochilishidir. "*Erlarni asradi, o'lmasin dedi*" jumlasini uning jangda ham xalq manfaatini birinchi o'ringa qo'yishini bildiradi. U shunchaki g'alaba qozonishni emas, qo'shinini imkon qadar talafotsiz saqlashni maqsad qiladi. Shu jihatdan Bilga Xoqon obrazi romanda dono, mas'uliyatli va xalqparvar hukmdor sifatida badiiylashtiriladi. Kur Shad va Tangriqut obrazlari orqali esa muallif xarakterlar xilma-xilligini ko'rsatadi. Tangriqut jo'shqin va tezkor bo'lsa, Kur Shad mulohazali va ehtiyotkor sifatida tasvirlanadi. Bu ikki xarakter qadimgi turkiy jamiyatdagi ideal jangchi timsolining ikki qirrasini — jasorat va tafakkurni ifodalaydi. Demak, roman qahramonlari bir xil qolipda emas, turli ruhiy va xarakter xususiyatlariga ega holda tasvirlangan. Mazkur bob "Bilga Xoqon" romanida harbiy g'alabaning siyosiy, ma'naviy va ruhiy ma'nolarini ochib beruvchi muhim sahnalardan biridir. Muallif jang tasvirini oddiy to'qnashuv sifatida emas, balki strategik tafakkur, xalq manfaatini himoya qilish va turkiy birlik g'oyasining badiiy ifodasi sifatida talqin qiladi. Epizodning dastlabki qismida ko'chki va muz ostidagi suv tasviri orqali tabiatning o'zi jang vositasiga aylantiriladi. Bilga Xoqon dushmanni ochiq maydonda emas, tabiiy makonning imkoniyatidan foydalangan holda tor-mor etadi. Bu holat qadimgi turkiy harbiy tafakkurda geografik muhitni chuqur bilish va undan oqilona foydalanish muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Muallif jang manzarasini nihoyatda dinamik tasvirlaydi. "*Cherik selday bo'lib yov ustiga oqdi*" jumlasini qo'shin harakatining shiddatini kuchaytiradi. Bu yerda "sel" obrazi tasodifiy emas: u nazorat qilib bo'lmaydigan tabiiy kuchni anglatadi. Demak, turkiy qo'shin romanda tabiatning o'zi bilan uyg'unlashgan qudrat sifatida gavdalanadi. Qichqiriqlar, qurol tovushi, ot kishnashi va qoramollarning bo'kirishi orqali jangning akustik manzarasi yaratiladi. Natijada o'quvchi voqeani nafaqat ko'radi, balki eshitadi ham. Bu usul epizodning epik ta'sir kuchini oshiradi.

Natijalar. Ishbara Yamtar obrazi orqali muallif jangovar ruhiyatning jo'shqin va instinktiv qatlamini ochadi. Uning sanjaq bilan dushmanga tashlanishi, jang ichidagi hayajoni va keyingi quvonchi xalq orasidagi sodda, ammo samimiy alp tipini ifodalaydi. Shu bilan birga, muallif faqat individual jasoratni emas, intizomli qo'shin harakatini ustun qo'yadi. Bilga Xoqonning "Tur!" degan birgina hayqirig'i bilan butun qo'shin to'xtashi hukmdorning mutlaq obro'sini va qo'shin ichidagi tartibni ko'rsatadi. Demak, g'alabaning asosi shunchaki kuch emas, balki intizom va boshqaruvdir.

Epizodning eng muhim qatlamlaridan biri Bilga Xoqonning oqsoqollar bilan suhbatida ochiladi. Muallif bu yerda jangdan siyosiy-falsafiy mushohadaga o'tadi. Bilga Xoqon To'qqiz o'g'uzlarni mutlaq dushman sifatida emas, aldangan qondosh xalq sifatida ko'radi. U tabg'ach siyosatini fosh etib, turkiy qabilalar o'rtasidagi nizolar tashqi kuchlar manfaatiga xizmat qilayotganini ta'kidlaydi. *"Yot bir yonda qolib, o'z qondoshingga tig' urasanmi?"* degan mazmundagi fikr romanning asosiy g'oyaviy nuqtalaridan biridir. Bu orqali muallif milliy birlik masalasini tarixiy voqelik doirasida yoritadi. Bilga Xoqon nutqida hukmdorning siyosiy donoligi va ma'naviy ustunligi yaqqol namoyon bo'ladi. U g'alabadan keyin qasoskorlik yo'lini tanlamaydi. Asirlarni ozod qilishi, oqsoqollar bilan kengashishi va kelajakda birlashishni taklif qilishi uning davlat arbobi sifatidagi yuksak fazilatlarini ochadi. Shu jihatdan Bilga Xoqon obrazi romanda oddiy sarkarda emas, balki el manfaatini shaxsiy g'alabadan ustun qo'yadigan tarixiy shaxs sifatida talqin qilinadi. Muallif jangdan keyingi holatni ham xalq hayoti bilan bog'laydi. Qoramollarning so'yilishi, et pishirilishi, och budunning to'yib ovqat yeyishi tasvirlari g'alabaning real ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi. Bu yerda urushning maqsadi shon-shuhrat emas, xalqni ochlikdan qutqarish ekani ayonlashadi. *"Bolaqaylar suyak mijib yurishardi"* kabi detallar orqali tarixiy voqelik oddiy xalq turmushi bilan uyg'unlashtiriladi. Muallif tarixni faqat hukmdorlar darajasida emas, budun hayoti orqali ham ko'rsatadi. Bobning yakuniy qismida Bilga Xoqonning insonparvarligi yana bir bor ochiladi. Beklar yurishni davom ettirishni istahsa-da, u bunga rozi bo'lmaydi. *"Kuchsizlar ustiga ne deya bosasan?"* degan fikr hukmdorning axloqiy mezonini belgilaydi. U g'alabadan mast bo'lib qirg'in qilishni emas, xalq va bolalarni asrashni tanlaydi. Shu orqali romanda turkiy hukmdor idealining asosiy belgilari — adolat, rahm-shafqat va mas'uliyat yoritiladi.

"Yishga qaytish" qismida esa jangdan keyingi ruhiy holat ochiladi. Budunning tiriklanishi, itlarning ham semirib qolishi, o'choqlarda osh qaynashi g'alabaning hayotbaxsh natijasini bildiradi. Biroq Ishbara Yamtar va boshqa erlarning ichida hali ham qasos hissi yashaydi. Ular qul qilib olib ketilgan yaqinlari va o'ldirilgan qarindoshlarining qoni yerda qolmasligini istaydilar. Bu holat romanda xalq ruhiyatining murakkabligini ko'rsatadi: bir tomonda quvonch va najot, ikkinchi tomonda esa o'ch va tarixiy xotira mavjud. Mazkur bobda Isajon Sulton turkiy budunning qayta tiklanish jarayonini nafaqat tarixiy hodisa, balki milliy ruhiyatning uyg'onishi sifatida tasvirlaydi. Bobning boshida *"Ko'k Tangri budunning yo'q bo'lishini istamadi"* degan fikr keltirilishi qadimgi turkiy dunyoqarashning asosiy tamoyillaridan biri — xalq taqdirining Tangri irodasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu yerda g'alaba oddiy harbiy ustunlik emas, balki ilohiy quvvat va tarixiy haqiqatning ifodasi sifatida talqin qilinadi. *"Oz cherik ko'pni yenggani"* motivi ham aynan shu g'oyani mustahkamlaydi. Muallif shu orqali xalqning tirik qolishini tasodif bilan emas, uning tarixiy yashash haqqi va ichki qudrati bilan izohlaydi. Budunning turli tomonlardan kelib yig'ilishi romanning epik ko'lamini kengaytiradi. Sariq sochli, ko'k yoki yashil ko'zli, qiyiq ko'zli, suyakdor yoki yoyiq kishilar tasviri turkiy ulusning etnik

jihaddan rang-barang ekanini bildiradi. Bu tasvir orqali muallif turkiy birlik g'oyasini biologik yoki tashqi o'xshashlikka emas, tarixiy va ruhiy yaqinlikka asoslaydi. Demak, romanda budun tushunchasi qon yoki qabila doirasidan kengroq ma'no kasb etib, umumiy taqdir va madaniy xotira asosida birlashgan xalq timsoliga aylanadi. "Yish kengayib, ming tomli bo'ldi" jumlasini ham ramziy ma'noga ega. Yish — oddiy yashash joyi emas, balki qayta tiklanayotgan davlat va budunning timsolidir. Ochlik va qirg'indan keyin oshlikning ko'payishi, kigiz to'qilishi, ov qilish va qurol yasash jarayonlari xalqning hayotiy ritmi tiklanayotganini ko'rsatadi. Muallif tarixiy tiklanishni avvalo maishiy detallar orqali ochadi. Odamlarning yuzi qizarishi, oshning mo'lligi, bolalarning tirikchilikka qaytishi orqali xalqning ruhiy va jismoniy jonlanishi tasvirlanadi. Bu jihat romanning tarixiy voqelikni oddiy xalq turmushi bilan uyg'unlashtirish mahoratini ko'rsatadi. "Yishga qaytish" bobida Bilga Xoqon obrazi yana xalqparvar va mas'uliyatli hukmdor sifatida ochiladi. U jangda halok bo'lganlarning oilalariga mol-mulk ulashtiradi, yaradorlarni shaxsan borib ko'radi. Bu holat hukmdorning budun bilan ruhiy yaqinligini ko'rsatadi. Yaradorlarning uni ko'rib o'rnidan turishga urinishi esa Bilga Xoqonning xalq orasidagi ma'naviy obro'sini ifodalaydi. Shu tariqa romanda hukmdor va xalq o'rtasidagi munosabat buyruqbozlikka emas, ishonch va hurmatga asoslangan holda tasvirlanadi. Ishbara Yamtarning quvonchi orqali esa muallif oddiy alp ruhiyatini ochadi. Uning "Yashash yaxshi bo'lib qoldi-ya?" degan mazmundagi quvonchi urushdan keyingi tinchlikning oddiy inson qalbida qanday aks etishini ko'rsatadi. Bu yerda tarixiy g'alaba davlat miqyosidagi voqea bo'lish bilan birga, oddiy odamning qorni to'yishi, ovqat yeyishi va sevgan kishisini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan ham o'lchanadi. Shu sababli romanda tarixiy voqealar insoniy ehtiyoj va ruhiy holatlar bilan chambarchas bog'liq holda talqin qilinadi.

Xulosa. Isajon Sultonning "Bilga Xoqon" romanida tarixiy shaxs obrazi oddiy tarixiy xotira yoki qahramonlik timsoli sifatida emas, balki milliy tafakkur, ma'naviy yetuklik va davlatchilik g'oyalarini mujassamlashtirgan murakkab adabiy qahramon sifatida talqin etiladi. Muallif Bilga Xoqon obrazini yaratishda uning siyosiy faoliyati bilan bir qatorda ruhiy dunyosi, xalq taqdiri oldidagi mas'uliyati, insoniy fazilatlarini va strategik tafakkurini ham chuqur badiiy tahlil qiladi. Shu jihatdan roman tarixiy voqelikni badiiy-falsafiy mushohada bilan uyg'unlashtirgan muhim asarlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, romanda Bilga Xoqon obrazi dono hukmdor, tajribali sarkarda va xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan davlat arbobi sifatida gavdalantirilgan. U jang maydonida shoshqaloqlik bilan emas, aql, sabr va strategik kuzatuv asosida harakat qiladi. Tabiiy makondan harbiy vosita sifatida foydalanishi, qo'shin ichidagi intizomni saqlashi va jangchilar hayotini qadrlashi uning ma'naviy-axloqiy yetukligini ochib beradi. Ayniqsa, g'alabadan keyin dushmanga nisbatan qasoskor emas, balki siyosiy ong va xalq manfaatidan kelib chiqib munosabatda bo'lishi Bilga Xoqon obrazining insonparvarlik mohiyatini yanada kuchaytiradi. Asarda xalq va

hukmdor o'rtasidagi munosabat ham alohida badiiy ahamiyat kasb etadi. Bilga Xoqon budun bilan ruhiy jihatdan yaqin, xalq dardi va ehtiyojini his qila oladigan rahbar sifatida tasvirlanadi. Yaradorlardan xabar olishi, jangda halok bo'lganlar oilasiga yordam berishi, kuchsizlar ustiga yurishni istamasligi uning adolat va rahm-shafqatga asoslangan boshqaruv tamoyiliga ega ekanini ko'rsatadi. Shu orqali romanda turkiy hukmdor idealining asosiy belgilari — donishmandlik, jasorat, mas'uliyat va xalqparvarlik badiiy ifodasini topadi. Roman tahlili davomida, shuningdek, qadimgi turkiy xalqning ma'naviy dunyosi, alp tarbiyasi, tarixiy xotirasi va milliy birligi ham keng yoritilgani aniqlandi. Ishbara Yamtar, Kul Tigin, To'nyuquq singari obrazlar orqali muallif turkiy jamiyatdagi jasorat, sadoqat, tajriba va avlodlar davomiyligi g'oyalarini ochib beradi. Jang, bayram, xalq turmushi va marosimlarga oid tasvirlar esa asarning epik ko'lamini kengaytirib, tarixiy voqelikni jonli va ta'sirchan shaklda gavdalantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, "Bilga Xoqon" romani tarixiy haqiqat va badiiy talqinning uyg'unligi asosida yaratilgan yirik epik asar sifatida zamonaviy o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi. Isajon Sulton ushbu roman orqali Bilga Xoqon siymosini milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy ideal timsoli darajasiga ko'targan. Shu sababli asar nafaqat tarixiy roman, balki turkiy xalqlarning ruhiy-ma'naviy ildizlarini badiiy tadqiq etuvchi muhim adabiy manba sifatida ham qimmat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sulton, I. (2022). *Bilga Xoqon*. Toshkent: Factor Books nashriyoti.
2. Yo'ldoshev, Q. (2015). *O'zbek adabiyotida tarixiy roman poetikasi*. Toshkent: Akademnashr.
3. Sattorova, D. (2017). "Isajon Sulton romanlarida badiiy til va uslub." *Til va adabiyot ta'limi jurnali*, №5, 41–48-betlar.
4. Madaminova, M. (2023). "Isajon Sulton romanlarida tarixiylik va milliylik uyg'unligi." *O'zbek tili va adabiyoti jurnali*, №3, 45–56-betlar.
5. Ergashev, A. (2008). *Qadimiy turkiy bitiklarning badiiy tafakkur tizimi*. Toshkent: Fan.
6. Xolmuratova, M. (2023). "Tarixiy-badiiy asarlarda rahbarlik konsepsiyasi: 'Bilga Xoqon' misolida." *Sharq yulduzi*, №10, 22–29-betlar.
7. Yo'ldoshev, Q. (2015). *O'zbek adabiyotida tarixiy roman poetikasi*. Toshkent: Akademnashr.